



**Rashid XOLMURODOV, Dilshod XOLMURODOV**

**TARIXIY O'LKASHUNOSLIK FANINI  
O'QITISHDA MAHALLIY  
MATERIALLARDAN FOYDALANISH  
(JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI  
VAZIRLIGI**

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**TARIX FAKULTETI**

**Umumiy tarix kafedrası**

**R. XOLMURODOV**

**D. XOLMURODOV**

**TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK  
FANINI O‘QITISHDA MAHALLIY  
MATERIALLARDAN FOYDALANISH  
(JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)  
(O‘quv qo‘llanma)**

Toshkent  
“Istiqlol nuri”  
2014

**UO'K: 94:908(574.32)**

**26.89**

**X72**

**Xolmurodov, Rashid**

Tarixiy o'lkashunoslik fanini o'qitishda mahalliy materiallardan foydalanish (Jizzax viloyati misolida) / R. Xolmurodov, D. Xolmurodov. - Toshkent : «Istiqol nuri», 2014. - 164 b.

**KBK 26.89**

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "Ta'lim markazi" tomonidan tasdiqlangan dasturga asoslanib tuzildi. Jizzax davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashi tomonidan 29-yanvar 2014-yil (5-sonli bayonnoma) muhokama etilib, chop etishga va o'quv jarayoniga tadbiq etishga tavsiya etildi.

**Taqrizchilar:**

**t.f.n. R. NURQULOVA,**  
Respublikada xizmat ko'rsatgan  
Xalq ta'limi xodimi, Jizzax davlat  
pedagogika instituti Umumiy tarix  
kafedrasida dotsenti

**i.f.n. P. BERDIBEKOV,**  
Jizzax viloyat pedagogik kadrlarni  
qayta tayyorlash va malakasini oshirish  
instituti, Ijtimoiy fanlar va ma'naviyat  
kafedrasining mudiri

**Mas'ul muharrir: f.f.n. A. AMANLAYEV**

Mazkur qo'llanmada o'lkamiz tarixini o'rganishga, xususan, Jizzax viloyatining tarixiy manbalaridan keng foydalanildi. Unda tarix va o'lkashunoslik darslarida arxeologiya, toponomika, etnografiya, o'lkashunoslik to'garaklari va maktab muzeylari faoliyatini yoritishga ham alohida o'rin berilgan.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarining o'quvchilari hamda shu soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borayotgan magistr va doktorantlar uchun mo'ljallangan.

**ISBN 978-9943-4303-6-5**

© R. Xolmurodov,  
© D. Xolmurodov,  
© «Istiqol nuri»,  
2014 y.

## MUQADDIMA

Mustaqillik sharofati bilan o'lkamizning boy tarixini, qadriyatlarimizni har tomonlama puxta o'rganish uchun keng yo'l ochildi. Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlari Ona yer va Vatan mehri, vatanparvarlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan: "Buyuk ajdodlarimizning ruhi nurafshon qilib turgan, bizga ilhom berayotgan va egnimizni but, qornimizni to'q qilayotgan shu muqaddas zaminga muhabbat bamisoli bitmas-tuganmas chashmadek qaynab turibdi."<sup>1</sup> Inson butun vujudi bilan shu yurtga ta'zim qiladi. Shodiyona damlarda, musibatli onlarda ham biz undan madad olamiz, u bizga yangidan-yangi kuch beradi, yangi umidlar bag'ishlaydi.

Respublikamizda xalqimizning tarixiy-madaniy hamda ma'naviy merosini mahalliy manbalar asosida o'rganish yoshlarimizni har tomonlama yuksak axloqiy va boy ma'naviy tamoyillarda, vatan va umumjahon tarixining ezgu an'alarini qadrlash ruhida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi hujjatlar, nafaqat ta'lim tizimining islohga bo'lgan ehtiyoji, balki, ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar, jamiyat hayotidagi inson shaxsining o'rni va ishtirokini faollashtirish zaruriyati tufayli yuzaga keldi. Shubhasiz, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" o'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra, faqat ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni isloh qilish bilangina chegaralanib qolmasdan, balki, davlatimiz kelajagi uchun ulug'vor ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, Yurtboshimiz I. Karimov o'zining bir qator kitoblari, maqolalari, ma'ruzalarida ta'limning ustuvorligi va uni yanada demokratlashtirish zarurligini ishlab chiqdi va jahon qiyofasi yaxlitligi, yuksak ma'naviyati va umumbashariy tafakkuri-ning asosiy bo'limi hisoblangan ta'limni ijtimoiylashtirishni, birinchilardan bo'lib, qo'llab-quvvatladi. Respublikada qator yangi universitetlar, institutlar ochildi. Oliy ta'lim dargohlari,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlo'l va taraqqiyot yo'li. T., "O'zbekiston", 1992, 65-bet.

o'рта maxsus ta'lim o'quv yurtlari malakali kadrlar bilan ta'minlanib, umumta'lim maktablarining moddiy texnika bazasi har tomonlama mustahkamlandi.

O'zligimizni anglab, mustaqilligimiz kun sayin mustahkamlanib borayotgan bugungi kunda Vatan tarixini sevish, o'rganish, dilga jo qilish Ona zaminimizning har bir farzandi uchun muqaddas burchga aylanmog'i lozim. Ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning aql-zakovati, oltin qo'llari bilan qadimiy, hamisha navqiron Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari devorlarida kishining aqli bovar qilmaydigan darajada nafis va nozik qilib ishlangan, hozirgacha saqlanib qolgan naqshlari buyuk ajdodlarimiz yuksak san'atining timsoli sifatida ham kishilarni lol qoldirmoqda.

Qadimgi va O'рта asrlar me'morchiligi obidalarini saqlash, tarixiy madaniyatimizni, san'atimizni o'rganish va muhofaza qilish hozirgi zamon yosh avlodini, mehnatkashlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ana shuning uchun ham mustaqillikka erishgan yurtimizda tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarni o'rganish, muhofaza qilish muammolarini hal qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Vatan o'lkashunosligi tarixini arxeologiya va tarix fanlari manbalarini tadqiq etish yo'llari orqali o'rganiladi. Ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Tarix fanini o'rganishda asosan ikki xil – yozma va moddiy-madaniy manbalardan foydalaniladi. Moddiy manbalar jumlasiga: mehnat qurollari, uy ro'zg'or, zeb-ziynat buyumlari, qurol-aslaha, tanga pullar, kiyim-kechak, xullas, inson qo'li bilan yaratilgan barcha narsalar kiradi. Arxeologik tekshirishlar esa insoniyat tarixining noma'lum sahifalarini arxeologik qazilmalar, topilma, ashyoviy dalillar asosida tiklaydi. Tarixiy jaryonlarga aniqlik kiritish mobaynida arxeologiya faniga, yozma manbalarga, elshunoslik, etnografiya, antropologiya, numizmatika, geologiya, botanika va boshqa fanlarga murojaat qiladi.

O'zbek xalqining tarixiy, madaniy va me'moriy yodgorliklari jahon madaniy merosining tarkibiy qismi bo'lib, jahon taraqqiyotiga qo'shilgan munosib hissa hisoblanadi. Ana shunday qimmatga molik bo'lgan tarixiy va moddiy-madaniy yodgorliklarni o'rganish, muhofaza qilishning rolini



o'shinish, o'zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti, ma'naviy, moddiy manbalarini o'rganish hozirgi davrda tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri. Sho'rolar davrida oliy maxsus o'quv yurtlari va umumta'lim maktablarida o'qitilgan darslik va tarixiy asarlar va kitoblarning ko'pchiligida o'zbek xalqining haqiqiy tarixi soxtalashtirilib, xalqimiz milliy manfaatlarini oyoq osti qilindi. Buning oqibatida o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga putur yetdi, xalqning siyosiy ongi o'tmaslashib, ijtimoiy-siyosiy voqealarga befarqlik, loqaydlik hissiyotlarining kuchayishiga olib keldi.

Mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim vositalardan biri bo'lgan o'lkashunoslik fanini oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlarida, litseylar, kasbhunar kollejlari, umumta'lim maktablarida o'qitishga katta e'tibor qaratildi. O'lkashunoslik fanini o'qitishda, mahalliy arxeologiya, elshunoslik, toponomika manbalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Umumta'lim maktablarida O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish darslarida arxeologik qazilma topilmalaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish, dars samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa mavzuga aniqlik kiritib, uni yanada to'ldirish bilan birga, o'quvchilarni o'lkamiz tarixini yaxshiroq o'rganishda muhim o'rin tutmoqda.

Xalqimiz o'tmishini arxeologik jihatdan o'ranish XIX asrning so'nggi yillarida boshlandi. Bu davrda arxeologlar tomonidan anchagina qazilma materiallari to'plandi. O'zbekistonning qadimgi moddiy-madaniyat yodgorliklarini o'rganishda, dastlabki qadamlar rus sharqshunoslari tomonidan arxeologiya sohasida olib borilgan qazilma ishlar yosh tarixchi arxeologlarga ham ta'sir qilib, O'zbekistonda qadimgi narsalarni to'plovchilar soni o'sib bordi. Aholi orasidan toshkentlik Akram Polvon Asqarov, buxorolik Muhammad Vafo, samarqandlik Mirzo Abdullo Buxoriy, Mirzo Barot, Mulla Abdurahmon, Abu Said Maxsum singari mahalliy arxeologlar yetishib chiqqan bo'lishiga qaramay, arxeologik tekshirishlar natijasida to'plangan boy moddiy-madaniy manbalar asosida tarixiy xulosalar chiqarish qoniqarsiz ahvolda qolgan edi.

Oliy o'quv yurtlarida, umumta'lim maktablari litsey va

kasb-hunar kollejlari O'zbekiston tarixini o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari uchun ko'paytirilishi tufayli O'zbekiston tarixini o'qitish jarayonida o'lkashunoslik materiallaridan o'rinli foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasi tarixini bilib olish, chuqur bilim olishga, mustaqil ijod qilishga bo'lgan qiziqishini orttirib, kelgusida hayot yo'lini tanlab olishga yordam beradi. Shu boisdan ham mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, aholining tariximizga oid o'lkashunoslik materiallarini o'rganishga qiziqishi kuchayadi. Bu esa o'lkashunoslikka oid o'quv qo'llanmalarga bo'lgan talabning yanada ortib borishiga sabab bo'ladi. Hozirgi paytda o'lkashunoslikni o'rganish uchun oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan A. Nabiyevning "Tarixiy o'lkashunoslik" (Toshkent, 1996-yil) o'quv qo'llanmasi mavjud bo'lib, unda juda boy arxeologik va o'lkashunoslikka oid yodgorliklarga ega bo'lgan Sirdaryo, Jizzax viloyatlari materiallariga kam o'rin berilgan. Holbuki, Jizzax vohasida o'rin olgan Sayxonsoy va Takatoshdagi qoyatoshlarga o'yib tushirilgan ko'plab tasvirlar, Jizzax shahri atrofidagi "Kanpirak devor", "Qaliyatepa" va "Sheponchiqtepa" dan topilgan tarixiy topilmalar Jizzax vohasi qadimdan kishilik sivilizatsiyaning madaniy o'choqlaridan biri bo'lib kelganini isbotlaydi. Buyuk Ipak yo'lining Jizzax hududi orqali o'tganligi esa viloyat xalqining savdo-sotiq, hunarmandchilik, san'at, adabiyot, ilm-fan sohasida qadimdan boshqa mamlakatlar xalqlari bilan o'zaro aloqada bo'lib kelganidan darak beradi.

Oliy akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va o'rta umumiyta'lim maktablarining o'quvchilari va ko'p sonli talabalarga mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanmada Jizzax, Sirdaryo viloyatlari materiallaridan o'z o'rnida foydalanish, o'zbek xalqining jahon tarixi rivojiga munosib hissa qo'shgan allomalar hayoti va ijodini yoritishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur o'quv qo'llanmada tarix va o'lkashunoslik darslarida o'lkashunoslik, etnografiya, toponomika materiallaridan foydalanib, dars samaradorligini oshirishga harakat qilayotgan ilg'or tarix o'qituvchilarining ish tajribalari, umumta'lim maktablarining tarix, o'lkashunoslik to'garaklari, maktab muzeylarining ish faoliyatini yoritishga ham alohida o'rin berildi. Shular bilan bir qatorda mavzular bo'yicha test va

topshiriq savollari mahalliy toponomikaga oid ma'lumotlar bayonini topgan.

Qo'llanmani yozishda V.V. Bartold, S.P. Tolstoy, Ya. G'ulomov, G. Pugachenkova, X. Ziyoyev, A. Sa'dullayev, N. Norqulov, I. Jabborov, A. Muhammadjonov, F. Boynazarov, H. Hasanov, R. Shamsiddinov, Q. Usmonov, X. Sodiqov, P. Ravshanov, B. O'rinboyev, U. Jumanazarov, J. Rahimov, M. Pardayev, A. Pardayev, X. Xaydarov, O'. Nosirov, Q. Hakimov va boshqalarning asarlaridan unumli foydalanildi.

Qo'llanmani tayyorlashda yordamini ayamagan A. Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika oliygohi rektori prof. O. Do'smatov, o'quv ishlari bo'yicha rektor o'rinbosari prof. N. Alimov, ma'naviyat ishlari bo'yicha rektor o'rinbosari A. Tangirov, filologiya fanlari doktori professorlar U. Jumanazarov, O. Jo'rayev, X. Jo'rayev, M. Pardayev, K. Xakimov, F. Boynazarov, S. G'oziyev, E. G'aniyev va A. Amanlayevlarga va Jizzax viloyat pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining ijtimoiy fanlar va ma'naviyat kafedrasini a'zolari va shu kafedra mudiri i.f.n.dots. P. Berdibekovlar qimmatli maslahatlarini berganligi uchun o'z minnatdorligimizni bildiramiz.

Shuningdek, 2005–2013 o'quv yillari mobaynida Jizzax shahridagi Abu Rayhon Beruniy nomli iqtidorli o'quvchilar gimnaziyasi VI–XI sinflarida sinov-tajriba darslarini o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatgan gimnaziya rahbari, oily toifali geografiya o'qituvchisi D. Hamraqulova, oliy toifali tarix o'qituvchisi M. Ergashev, Sh. Rashidov nomidagi 10-maktabning tarix o'qituvchisi Umidjon Mahkamovlarga ham o'z tashakkurimizni izhor qilamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'quvchilariga, o'lkashunoslik faniga qiziquvchilarga qo'llanma sifatida xizmat qiladi, degan umiddamiz. Qo'llanma haqidagi taklif-mulohazalaringizni A. Qodiriy nomli Jizzax davlat pedagogika instituti umumiy tarix kafedrasiga yo'llashlaringizni so'raymiz.



## Tarixiy o'lkashunoslik fanining manbalari va turlari

O'zbekiston Respublikasining moddiy va madaniy boyliklari tarixini o'rganishda o'lkashunoslik fanining tutgan o'rnini nihoyatda katta. Chunki o'lkashunoslikning arxeologiyaga oid shahar qurilishi va me'morchilik yodgorliklari, yodgorlik hujjatlari elshunoslik va toponomikaga oid materiallardan o'rinli foydalanish orqali o'rganish amalga oshiriladi. Tarixiy yodgorliklarga insoniyat hayotidagi eng muhim voqealar, jamiyatning rivojlanish bosqichlari, inqilobiy harakatlar bo'lib o'tgan joylar, atoqli sarkardalar, yirik davlat fan va madaniyat arboblarning nomlari bilan bog'liq voqea joylari, o'tmishdan bizga meros bo'lgan qo'lyozma asarlar manbalari asosida o'rganiladi.

Jizzax vohasida yashab ijod qilgan Fozil shoir, Muhammad Rizo, Narzulla Umrzoq o'g'li, Shermat, Maxzun, Mulla Azim, Mahmud Koriziy, Muazzamxon, Alamkash singari o'z davrining yetuk shoirlarini XX asrda ijod qilgan buyuk yozuvchi, davlat va jamoat arbobi Sh. Rashidov O'zbekiston xalq shoiri H. Olimjon, O'zbekiston xalq yozuvchisi Nazir Safarov, bolalar shoiri Shukur Sa'dulla, shoir Nazirjon Barakayev, yozuvchi Keldi Qodirov, ikki marta Mehnat Qahramoni Hamroqul Nosirovlar Jizzax viloyati taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Jizzax, Sirdaryo viloyatlari arxeologik yodgorliklarga boy bo'lib, unga ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar, qal'alar, qadimiy manzilgohlar, istehkomlar, korxonalar, qadimiy yo'llarning qoldiqlari, dafn joylari qoyalardagi bitik tasvirlar va boshqa juda ko'p joylar kiradi. Shahar qurilishi va me'morchilik yodgorliklari esa me'morchilik ansambllari, tarixiy markazlar, mavzalar, maydonlar, ko'chalar, shaharlar va boshqa aholi yashaydigan joylarning qoldiqlari: harbiy, diniy, xalq me'morchiligi inshootlari, monumental, tasviriy, amaliy dekorativ va boshqa turdagi san'at yodgorliklari, markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari davlat boshqaruv organlarining turli xil yozma, chizma, kino, foto hujjatlari, tovush yozuvlari, qadimiy qo'lyozmalar, arxiv materiallari, folklor va musiqa yozuvlari nodir bosma namunalardan tashkil topgan. Ma'lumki, etnografik va toponomik ma-

teriallar orqali esa xalq urf-odatlari moddiy va ma'naviy madaniyat, xalqlarning ertak, folklor, mifologiyasi hamda joy nomlarining ilmiy jihatdan kelib chiqishi o'rganiladi.

Yuqoridagi tarixiy yodgorliklardan tashqari, tarixiy, ilmiy jihatdan qimmatga ega bo'lgan obyektlar, muzeylarda saqlanayotgan eksponatlar va ulardan o'quv ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanishga mo'ljallangan uslubiy materiallar ma'naviyat dars rejalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu manbalarni o'rganish va umumlashtirish, o'lka-shunoslik tadqiqotchilari, jamoat o'lkashunosligi va yosh tarixchilarga zarur ma'lumot bo'lib xizmat qiladi.

Amaldagi darsliklarda ta'kidlanishicha, o'lkashunoslik 3 turga bo'linadi.<sup>1</sup>

**1. Ilmiy, ya'ni davlat o'lkashunosligi.** Tarixiy o'lka-shunoslikning bu turi bilan tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ulardan foydalanish va asrash respublika qo'mitasi, muzeylar, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshidagi tarix, arxeologiya ilmiy tadqiqot institutlari shug'ullanadi.

**2. Jamoat o'lkashunosligi.** O'lkashunoslikning bu turi qishloq, ovul, qo'rg'on, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash, asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga xalqlarning kelib chiqishi, urf-odatlari, ilg'or kishilar, urush va mehnat qahramonlarining xotirasini abadiylashtirish ishlarini o'rganadi. Jamoat o'lkashunosligida tanga va pullarni o'rganuvchi – numizmatlar, muhrlarni o'rganuvchi – sfragistlar, gerblarni o'rganuvchi – geraldistlar, tosh metal, sopol va yog'ochdagi yozuvlarni o'rganadigan – efigrafistlarni o'rganadi.

**3. Maktab o'lkashunosligini o'rganish** umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari tarix, inson va jamiyat fani o'qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o'lkashunoslik to'garagi a'zolariga X–XI sinflarning a'lochi va eng intizomli o'quvchilari jalb qilinib, ular o'lka materiallarini guruhlariga bo'lingan holda arxeologik, etnografik, toponomik va arxiv hujjatlarini to'playdilar. Bu to'plangan materiallar maktab va akademik litseylarning o'lkashunoslik va tarix muzeylarida namoyish

<sup>1</sup> Nabiyev A. Tarixiy o'lkashunoslik. "O'qituvchi", 1996, 8-bet.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/1441> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/1441> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно  
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1441>